



Munisa SANAYEVA,

Toshkent davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

E-mail: munisa8811@gmail.com

Nizomiy nomidagi TDPU, "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasи dotsenti., p.f.f.d. (PhD) D.N.Abdullayeva tagrizi ostida

MODERN METHODS AND PRINCIPLES OF TEACHING BIOLOGY IN HIGH SCHOOLS THROUGH ELECTRONIC INFORMATION EDUCATIONAL RESOURCES

Annotation

Today, in our country, special attention is being paid to the issues of modernization of the education system, introduction of the most advanced educational technologies and training of students to be competitive with the world's youth. In addition, a number of reforms are being implemented in general education schools to improve the scientific and methodical support of academic subjects, to increase the quality of teaching, and to introduce modern electronic information and educational resources into educational processes. This article describes the modern methods and principles of increasing the effectiveness of biology education in general education schools, developing students' skills in using electronic information educational resources and biological competence.

Key words: Educational system, educational effectiveness, modern education, biology education, electronic information educational resources, biological competence, teaching methods and principles, ensuring pedagogical-ergonomic quality.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ И ПРИНЦИПЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИИ В ВУЗАХ С ПОМОЩЬЮ ЭЛЕКТРОННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ

Аннотация

Сегодня в нашей стране особое внимание уделяется вопросам модернизации системы образования, внедрения самых передовых образовательных технологий и подготовки студентов, способных быть конкурентоспособными с молодежью мира. Кроме того, в общеобразовательных школах реализуется ряд реформ по совершенствованию научно-методического обеспечения учебных предметов, повышению качества преподавания, внедрению в образовательный процесс современных электронных информационных и образовательных ресурсов. В данной статье описаны современные методы и принципы повышения эффективности обучения биологии в общеобразовательных школах, развития у учащихся навыков использования электронных информационных образовательных ресурсов и биологической компетентности.

Ключевые слова: Образовательная система, эффективность образования, современное образование, биологическое образование, электронные информационные образовательные ресурсы, биологическая компетентность, методы и принципы обучения, обеспечение педагогико-эргономического качества.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BIOLOGIYA FANINI ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSLARI VOSITASIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limga tizimini modernizatsiya qilish, unga eng ilg'or ta'limga texnologiyalarini joriy etish hamda ta'limga oluvchilarini dunyo yoshlariga nisbatan raqobatbardosh qilib tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, umumta'limga maktablarida o'quv fanlarining ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish, o'qitish sifatini oshirish hamda ta'limga jarayonlariga zamonaqaviy elektron axborot ta'limga resurslarini joriy etish bo'yicha bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada umumta'limga maktablari biologiya ta'limi samaradorligini oshirish, o'quvchilarning elektron axborot ta'limga reserslaridan foydalananish ko'nikmalarini hamda biologik kompetentligini rivojlantirishning zamonaqaviy metodlari va tamoyillari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'limga tizimi, ta'limga samaradorligi, zamonaqaviy ta'limga, biologiya ta'limi, elektron axborot ta'limga resurslar, biologik kompetensiya, o'qitish metodlari va tamoyillari, pedagogik-ergonomik sifatini ta'minlash.

Kirish. Rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan ma'lumki, mamlakat taraqqiyotining ob'ektiv qonuniyatlar, nafaqat iqtisodiy salohiyat va imkoniyatlarni, balki ta'limga tizimi, undagi milliy qadriyat va xususiyatlarni, ma'naviy boyliklarini to'la hisobga oluvchi, mukammal ijtimoiy-iqtisodiy siyosat ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilgan sharoitdagina barqor va mutanosib rivojlanishga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda. Shubhasiz, davlat va jamiyat qurilishini modernizatsiyalash bosqichida ta'limga tizimining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar axborotlashgan jamiyatda mavjud bo'lgan eng asosiy qarama-qarshilikka diqqatni qaratadilar, ya'ni, doimiy o'sib boruvchi axborot hajmi sharoitlarida jahon miqyosidagi axborotlarning umumiy hajmida kishi egallashi mumkin bo'lgan bilimlarning ulushi qisqarib borishi ro'y beradi. Mazkur qonuniyat ayniqsa, ta'limga sohasida yaqqol ko'rinib qoladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, umumta'limga maktablarida o'quvchilarning tabiiy fanlarga doir bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyatini takomillashtirishda elektron axborot ta'limga resurslar (EATR) alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda xalqaro miqyosda biologiya ta'limga sifat-samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar, elektron axborot ta'limga resurslar, didaktik materiallarni tadbiq etish mexanizmlarini zamonaqaviy rivojlanish tamoyillari asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantrish" deb nomlangan to'rtinchchi ustuvor yo'nalishida umumta'limga maktablarida ta'limga sifatini oshirish bo'yicha bir qator vazifalari belgilab qo'yilgan [1].

Shuningdek, 2020 yil 8-avgustdag'i "Kimyo va biologiya ta'limga yo'nalishlarida uzlusiz ta'limga sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son [2] Qarorida ham Kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'limga sifatini tubdan oshirish, umumta'limga maktablarida ushbu fanlarni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, ta'limga muassasalarini zamonaqaviy laboratoriylar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari bilan ta'minlash, ushbu yo'nalishlarga malakali o'quvvchi-murabbiylarni jaib etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan

natijalaridan foydalanishda ta'lif, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lg'a qo'yish maqsadida amalga oshiriladigan vazifalarga to'xtalgan.

Ta'lif tizimida zamonaviy EATR va innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishning ilmiy-nazariy va metodik asoslar bo'yicha mamalakatimizda A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayev [3], M.M.Aripov [4], N.A.Muslimov [5], U.Sh.Begimkulov [6], N.I.Taylaqov [7], A.D.Askarov [8] va boshqa shu kabi olimlarlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. Shuningdek, biologiya ta'lifida elektron axborot ta'lif resurslaridan foydalanish masalalari J.Tolipova [9], A.T.G'ofurov [10], G.Ergasheva [11], S.Fayzullaev [12], L.Qoraxonova [13], M.Ibodova [14], U.Raxmatov [15] va boshqalar tadqiqotlarda o'rganilan.

Tadqiqot metodologiyasi. Umumta'lif maktablarida o'quvchilarining ta'lif olishiga ko'maklashish funksiyasi va bu funksiyalarni amalga oshirishda elektron axborot ta'lif resurslari (EATR) ning ahamiyati quyidagilardan iborat:

o'qituvchi tomonidan o'quvchi va o'qituvchining axborot oqimlari kesishmasi, o'quvchilarning yashirin tajribasiga tayaniш, shuningdek, tabiiy fanlar integratsiyalashuvni asosida o'quv fani bo'yicha ta'lif mazmunining tanlab olinishi. EATRni yaratish mazmuni tanlab olish bosqichida o'qituvchi tomonidan foydalilanadigan axborot manbalari doirasini kengaytirishga imkon beradi, bu o'quvchilarning axborot-ta'lif ehtiyojlarini to'laroq qondirishga, fanlararo integratsiyalashuvni amalga oshirishga yordam beradi.

o'qituvchi tomonidan nafaqat biologiya fani mazmunini o'zlashtirish masalalarini hal qiluvchi ta'lif texnologiyalarini (loyihaviy, tadqiqotchilik, refleksiv o'qitish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, axborot-kommunikativ texnologiyalarni), balki, o'quvchilarbiologik kompetentlilikning paydo bo'lishiga ham yordam beruvchi texnologiyalarini ham tanlab olish. EATR nafaqat turli xildagi ta'lif texnologiyalarining qo'llanilishini, balki an'anaviy reproduktiv texnologiyalarini qo'llash mumkin bo'lmay qoladigan va metodik jihatdan assosiz bo'lib qoladigan vaziyatni ham keltirib chiqaradi. EATR o'quvchilarini o'quv faoliyatda ko'proq mustaqil ishlashga va mustaqil ta'lif olishga yo'naltiriladi, bu esa ularda biologik kompetentlilikning shakllanishiha yordam beradi, zamonaviy ta'lif texnologiyalarini qo'llash bilan esa bu jarayon yaqqol ifodalananadigan maqsadga qaratilgan xususiyatdagi jarayonga aylanadi.

EATRlari o'quvchilarbiologiya fani bo'yicha bilimlar real "hayotiy muammolar"ni hal qilish uchun asosga aylanadigan kompetentlilikning yuzaga kelishi va namoyon bo'lishiga yordam beradi.

Tahsil va natijalar. Umumta'lif maktablari biologiya ta'lifida elektron ta'lif muhitini joriy etish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Bunda zamonaviy axborotlashgan jamiyatda fan o'qituvchilariga alohida talablar qo'yildi. V.I.Strajevning fikriga ko'ra, zamonaviy o'qituvchilaridan EATRdan maqsadli foydalana olish, o'quvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil egallashlarida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlarini joriy etishi talab etiladi [16].

Demak, ta'lif-tarbiya jarayonida EATR dan foydalanish fan o'qituvchisining kasbiy kompetentlilikini birinchini navbatda axborot kommunikativ kompetentligi (AKK) darajasining oshishi, shuningdek, o'qitishning an'anaviy metodlari, shakkllari va vositalarini o'zgartirish yoki yangilarini kiritish imkoniyatlarini tadqiq qilish hisobiga oshirishga olib keladi. Shuningdek, xuddi o'quvchilaridagidek, EATR dan foydalanish bilan ta'lif jarayonini tashkil etish o'qituvchining axborot maydoni kengayishiga, yangi o'quv fanlariaro aloqadorliklarning shakllanishiha olib kelib, bu o'quv fanini o'qitishning maqsadlari haqida ilgari shakllantirilgan tasavvurlarning mazmunini va yaxlit borliq tasvirini shakllantirish jarayonida uning o'rmini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi.

Didaktika nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadigan, elektron ta'lif va axborot texnologiyalarini joriy etish orgali samaradorlikka erishiladigan metodik maqsadlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

• o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash;

• teskari aloqa orqali o'quv faoliyatining nazoratini olib borish;

• o'z-o'zini nazorat qilish va baholab borish;

• o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish;

• o'quv jarayoni vaqtini tejab qolish;

• o'quv axborotlarni EATRlari orqali vizuallashtirish;

• o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish;

• kompyuterda laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish;

• axborot ma'lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish;

• o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish;

• ta'lif oluvchini o'quv materialining o'zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish;

• o'quvchilarning fikrlash, kreativ qobiliyatlarini rivojlanirish;

• optimal qaror qabul qilish malakasini hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirish;

• ta'lif oluvchida axborot va undan foydalanish madaniyatini shakllantirish.

U.Sh.Begimkulovning ta'kidlashicha, zamonaviy jamiyatda ta'lif tizimini rivojlanirishning strategik yunalishi - bu insonnning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va ahloqiy rivojlanishidir. Bunda 3 ta asosiy vazifaga e'tibor qaratiladi:

1. Ta'lif tizimini isloh etish.

2. Mustaqil faoliyat tamoyilini ta'lif va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e'tirof kilish.

3. Ta'lif jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish [17].

Hozirgi vaqtida zamonaviy ta'lif jarayonida ro'y berayotgan tizimli o'zgarishlar talablariga mos holda eng ahamiyatlari psixologik-pedagogik tavsiflardan biri bo'lib o'quvchilarning EATR asosida mahsuldar faoliyatini tashkl etish uchun ichki salohiyatning mavjudligi sanaladi. Mana shu tavsifga mos holda EATR ni tahlil qilish o'qituvchining faoliyatini mahsulдорligi darajalarini Lerner-Skatkin tasnifi bilan mos holda o'qitish metodlari bilan taqqoslash zaruratiga olib keladi:

1. Tushuntirish-illyustrativ metodlar;

2. Reproduktiv metodlar;

3. Muammoli metodlar;

4. Qismli-izlashli metodlar;

5. Tadqiqotchilik metodlar.

1. Tushuntirish-illyustrativ metodlar. Bu darajada o'qituvchi o'quv materiali mazmunidan (asosan axborot tipidagi) tayyor axborotni yoki xabar qilinayotgan dalil, tushuncha, ko'rib chiqilayotgan qonun, qonuniyatni illyustratsiyalash vositasi sifatida foydalanadi. Mazkur metoddan foydalanishda o'quvchi o'quv materiali mazmuni bilan faol ravishda o'zaro aloqada bo'ladi, o'quv axborotini qabul qiladi, kuzatadi, eslab qoladi.

2. Reproduktiv metodlar. Bu darajada EATR o'quvchilarbiologik kompetentlilikning mahorati va ko'nikmalari shakllanishi hamda bilimlarni nazorat qilishni tashkil etishda foydalanish mumkin bo'lib, bunda quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi: - mazmuni oldindan belgilangan algoritm bo'yicha o'quv harakatlarining amalga oshirishini ko'zda tutuvchi amaliy modullar; - o'tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlashga qaratilgan nazorat modullari. Reproduktiv metodlardan foydalanishda o'qituvchi EATR materiallari dan harakatlar namunalarini namoyish etish, o'zlashtirilgan mavzuni takrorlash darajasida bilim va mahoratni nazorat qilish hamda baholash uchun foydalanishi mumkin.

3. O'rganilayotgan mavzuni muammoli bayon qilish. Bu darajada EATR bevosita ham darsda, ham o'quvchilarining mustaqil ishini tashkil etishda foydalanishi mumkin. Bu yerda eng muhim - o'quv materiali mazmuni muammoli vaziyatni yaratish, o'quv muammosini o'rtaga tashlash, uni hal qilish usullarini namoyish etish manbatisi sifatida olib qaralishi mumkin. Biologiya darslarida mazkur metoddan biologic jarayonlar, hoidisalar haqida bilim berishda, xusan, muammoli masalalarni hal qilishga qaratilgan mavzularni o'qitishda foydalanishi mumkin.

4. Qismli-izlashli metodlar. Bu darajada EATR asosan o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligi ostida mustaqil faoliyatlarini tashkil etishda foydalanishi mumkin. Bu yerda alohida e'tibor

quyidagi modullarga beriladi: - mazmuni muammoli xususiyatga ega bo'lgan axborot tipidagi modullar; - o'quvchilar tomonidan ularga ilgari o'rgatilmagan faoliyat usullarining o'zlashtirilishiga qaratilgan amaliy tipdagi modullar; - o'zlashtirib bo'lingan bilimlarni umumlashtirishga, tizimlashtirishga, o'rganigan hodisalarни tushunib yetishning ko'p aspektli rag'batlantirilishiga qaratilgan mahorat tipidagi modullar. Biologiya darslarida mazkur metoddan davra suhbatlari, babs-munozaralar, o'quv konferensiylarini tashkil etish uchun foydalanish mumkin.

5. Tadqiqotchilik metodlari. Bu darajada EATR asosan o'quvchilarning mustaqil ishlari – mavzuni mustaqil o'rganish, laboratoriya va amaliy ishlarni tashkil etish hamda o'tkazish, o'quvchilar tomonidan tadqiqotchilik ishlarni yozish, o'quv loyihamalarini yaratish, o'quv o'yinlarini tashkil etish kabi faoliyat yo'nalishlarini tashkil etishda foydalanilishi mumkin. Mazkur metod ham biologiya ta'limdi o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantrishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridaqgi fikrlar asosida umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda EATRni yaratish va ulardan foydalanishda o'quv materiallari mazmunini tanlab olish tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Ilmiylik tamoyili – tayyorgarlik mazmunining pedagogik - psixologik, ta'limni axborotlashtirish, o'quv jarayoni axborot-metodik ta'minotining tarkibiy qismi sifatida EATRni yaratish va ulardan foydalanish amaliyoti bilan bog'liqlikka mosligi;

Amaliy-yo'naltirilganlik tamoyili – tayyorgarlik mazmunini tanlab olishning mualliflik metodikalari va ishlannalarini yuzaga chiqarish uchun EATRni yaratish bo'yicha amaliy vazifalarni hal qilishda axborot faoliyati va o'zaro axborot almashinuvini amalga oshirishga mosligi;

Tayyorgarlik mazmunining AKT rivojlanishidagi zamонави жаражага mosligi tamoyili –bilimlar, mahorat va tajribalarning zaruriy darajasini ta'minlash: ishlab chiqilayotgan EATRga pedagogik-ergonomik talablarni bajarish; ta'lim muassasasining axborot tarmoqlarini ma'lum bir o'quv fanlari mazmuni bilan to'ldirish; lokal va global tarmoqlarning taqsimlangan axborot resurslaridan mustaqil foydalanish; mualliflik metodikalarini ishlab chiqish;

Tayyorgarlik yaxlitligi tamoyili – EATRda yuzaga chiqariladigan umumpedagogik nazariyalar va o'quv fanlari bilan aloqadorliklarni ta'minlash;

Darajali differensiallashtirish tamoyili – tayyorgarlik mazmunining majburiy minimumi sanalgan tayanch tarkibi qismalar uchun ham, axborot-metodik ta'minotni shakllantirishda ancha murakkabliklar uchun ham turli xildagi murakkablik darajalarida EATRni ishlab chiqishning dastakli vositalarini o'zlashtirish imkoniyatlarini ta'minlash;

EATR ning pedagogik-ergonomik sifatini ta'minlash tamoyili – EATRga pedagogik-psixologik, mazmuniy-metodik, dizaynli-ergonomik talablarga ryoja qilish.

Xulosha va takliflar. Umumta'lim maktablari biologiya ta'limdi EATRdan foydalanishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- o'quvchi – ta'lim jarayonining passiv ishtiroychisi emas.

- o'quvchi o'z faoliyati maqsadlarini va unga erishish yo'llarini o'zi belgilaydi.

- o'quvchi – munozara, muhokama, tadqiqotlarning faol ishtiroychisi.

- o'quvchi EATR bilan o'zaro harakatlar usullarini tanlab oladi: o'quv mazmunini o'zlashtirish tartibini, topshiriqlarni bajarish sur'atini belgilaydi.

- o'quvchi maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan materialni tanlab oladi.

- o'quvchi o'qituvchi tavsiya qilgan, o'zi mustaqil tanlab olgan qo'shimcha materiallardagi zarur axborotni izlab topadi.

- o'quvchi o'z faoliyati natijasida olingen natijalarni tanlab olingen EATR materiallari bilan asoslagan holda namoyish etadi.

Biologiya ta'lindi EATRdan samarali foydalanish o'quvchilarda bilimlarni chuqur o'zlashtirish, o'z fikrini bayon etish, muammoli vaziyatlarini tahlil etish, interfaollik darajasi, tadqiqotchilik faoliyati hamda mustaqil bilim olish ko'nikma va malakalarini rivojlantrish imkoniyatini oshiradi. EATR o'zgaruvchan ta'lim ehtiyojlarni qondira oladigan va ularga mos holda javob bera oladigan rivojlanuvchi vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-soni Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 avgustdag'i "Kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishlarida uzlusiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son Qarori.
3. Abduqodirov A., Pardaev A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti // Monografiya. – Toshkent, 2009. -146 b.
4. Aripov M., Begalov B., Begimkulov Sh., Mamarajabov M., Axborot texnologiyalari. -T.: Noshir, 2009. -368 b.
5. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asosları: Ped. fan. dok. ... dis. - T.: TDPU, 2007. - 315 b.
6. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va borciqarish nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dokt..diss. - Toshkent, 2007.-305 b.
7. Taylaqov N.I. Uzlusiz ta'lim tizimi uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy-pedagogik asosları: ped. fan. dok... diss. – Toshkent: 2006 y. – 359 b.
8. Askarov A.D. Xalq ta'limi xodimlari malakasini masofadan oshirish tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.. Toshkent-2017. 112-b.
9. Tolipova J.O. Biologiya fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalar. Cho'lpox nashriyoti.-Toshkent, 2011. – 40 b.
10. G'ofourov A.T, Tolipova J.O, Umumiy biologiya fanini o'qitishning norasmiy usul va shakillari.-T,1992. -26 b.
11. Ergasheva G.S. // Biologiya fani ta'lindi axborot texnologiyalaridan foydalanish vosita va usullari. // Maktabda biologiya fani jurnali.. 2009. 4сон. –Toshkent, 10-14 b.
12. Fayzullaev S.S., Ibodova M.N. // Biologiya fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish yo'llari // . Respublika ilmiy amaliy konferensiya. –Toshkent, 2011. 2-tom 158-160 b.
13. Qoraxonova L.M. Biologiya fanini o'qitishda elektron ta'limi resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (7-sinf misoldida): ped. fan.dok...diss. avtoreferati. - Toshkent , 2020 y.
14. Ibodova M.N. // Biologiya fanidan o'quvchilarning mustaqil ishlarni axborot resurslari vositasida takomillashtirish metodikasi. – Toshkent, 2019. 12-15-b.
15. Raxmatov U.E. Masala va mashqlar orqali umumiyo'rta ta'lim maktablari biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish: ped. fan.dok...diss. avtoreferati. - Toshkent , 2021.
16. Стражев В.И. Технология информационного общества /В.И.Стражев// Интернет и современное общество: Материалы Всероссийской объединённой конференции. Санкт-Петербург, 20-24 ноября 2000. С292.
17. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий назарий асослари. Монография. Тошкент. Узбекистон Республикаси Фанлар академияси. "Фан" нашриёти 2007.